

geni va boshqalar ana shunday juft genlardir. Juft genlar **allel genlar** deb ataladi. No'xat donlari rangining sariq va yashil rangni belgilovchi genlari allel genlar (allelar)dir. Allel genlar gomologik, ya'ni juft xromosomalardan joy oladi, shunga ko'ra meyoz jarayonida ular har xil gametalarga o'tib qoladi.



1. Mendel gametalar sofliigi gipotezasini ta'riflab bergan vaqtlarda fanga nimalar ma'lum emas edi?
2. Somatik hujayralarda barcha xromosomalalar soni qanday holatda bo'ladi?
3. Monoduragay chatishtirishda belgilar ajralishining sitologik asoslari nimadan iborat?

49- §. 6- laboratoriya mashg'uloti. Monoduragay chatishtirishga doir masalalar yechish

1. Tovuqlarda gulsimon toj dominant (A), oddiy toj retsessiv (a). Tajribada gulsimon tojli tovuqlar oddiy tojli xo'rozlar bilan chatishtirildi. F_1 duragaylarning fenotipi va genotipi qanday bo'ladi?

a) agar F_1 o'zaro chatishtirilsa, F_2 da qanday natija kutish mumkin?

b) F_1 oddiy tojli xo'rozlar bilan qayta chatishtirilsa-chi?

2. Quyonlarda yungning normal uzunligi dominant (B), qisqaligi retsessiv belgi (b) hisoblanadi. Quyidagi genotipga ega organizmlar chatishtirilganda qanday fenotipli organizmlar olinadi?

$Bb \times Bb$; $BB \times bb$; $Bb \times BB$.

3. Pomidor mevasining qizil rangi (A) sariq rangi (a) ustidan dominantlik qiladi. Tajribada urug'chi va changchi organizmlar qizil rangga ega edi, lekin ular chatishtirilganda $3/4$ qizil, $1/4$ sariq pomidor hosil bo'ladi. Ota-onaning va F_1 duragaylarning genotipini aniqlang.

4. Gomozigota g'o'zaning hosil shoxi cheklanmagan (S) va cheklangan (s) formalari o'zaro chatishtirildi. F_1 va F_2 avlodning genotipini va fenotipini aniqlang.